

Sankt-Peterburgga qo'shimcha aviaqatnovlar

2022 10 Mart

Yo'lovchilar orasida talab ortishi munosabati bilan «Uzbekistan Airways» AJ Toshkent – Sankt-Peterburg – Toshkent va Urganch – Sankt-Peterburg – Urganch yo'nalishlari bo'yicha qo'shimcha aviaqatnovlarni yo'lga qo'yadi.

Toshkent – Sankt-Peterburg – Toshkent yo'nalishi bo'yicha qo'shimcha aviaqatnovlar 2022-yilning 16 va 23-mart kunlari, Urganch – Sankt-Peterburg – Urganch yo'nalishi bo'yicha esa 17, 20 va 23-mart kunlari amalga oshiriladi.

Aviachiptalarni www.uzairways.com rasmiy saytida, Uzbekistan Airways Sales filialida va aviakompaniyaning agentlaridan xarid qilish mumkin